

**INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGLAR
FAOLIYATINING AHAMIYATI**

Tohirova Mohigul Umir qizi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Gmail: tohirovamohigul15@gmail.com

Annotatsiya: Biz ushbu maqolada psixologning inklyuziv ta'lim-tarbiya berish jarayonini tashkil qilishda kasbiy etikasi va mahorati hamda inklyuziv ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni o'rgandik. Shuningdek, maqolada inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati oshirish va alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan va interaktiv texnologiyalar yordamida yanda rivojlantirish tamoyillari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, psixolog, inklyuziv ta'lim, tarbiya, kasbiy etika, aqli zaif, ko'zi ojiz, korreksiya, nuqson, nogiron, ta'lim, maxsus ta'lim, uydagi ta'lim, defektolog.

Аннотация: В данной статье мы изучили профессиональную этику и навыки психолога при организации процесса инклюзивного образования, а также требования к организации инклюзивного образования. Также в статье рассматриваются особенности повышения профессионального мастерства педагогов и работы с детьми с особыми потребностями в системе инклюзивного образования, а также принципы развития с помощью интерактивных технологий.

Ключевые слова: педагог, психолог, инклюзивное образование, воспитание, профессиональная этика, умственно отсталый, слепой, коррекция, дефект, инвалид, образование, специальное образование, домашнее обучение, логопед.

Abstract: In this article, we studied the professional ethics and skills of a psychologist in organizing the process of inclusive education, as well as the requirements for organizing inclusive education. Also, the article examines the specific features of improving the professional skills of teachers and working with children with special needs in the inclusive education system, as well as the principles of development with the help of interactive technologies.

Key words: pedagogue, psychologist, inclusive education, upbringing, professional ethics, mentally retarded, blind, correction, defect, disabled, education, special education, home education, speech pathologist.

Kirish. Yurtimiz va jahonda bugungi kunda ta'limga juda keng e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayoni yo'sinda inklyuziv ta'limga ham yuksak darajada imkoniyatlar va sharoitlar yaratilmoqda. Bu inklyuziy ta'lim - alohida ehtiyojli bolalar

bilan sog‘lom bolalar uchun teng ta‘lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta‘limni O‘zbekiston ta‘lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta‘lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat‘iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta‘lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta‘lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta‘lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi

Xususan, maxsus maktablarda ta‘lim oluvchi o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, sifatli pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish nazarda tutilgan. Bunga normativ-qonuniy hujjat sifatida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son, “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son, “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2021-yil 12-oktabr VM-638-son, Xalq ta‘limi xodimlari mehnatiga haq to‘lash shartlarini tartibga solish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 1994 yil 29-sentabr 2-ilovasi VM-490-son misol bo‘la oladi. Psixologik yordamni tashkillashtirish va amalga oshirishda asosiy urg‘uni kadr xodimlarning u yoki bu sohaga ixtisosligi bo‘yicha tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari psixolog xodim:

- O‘qituvchi o‘quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi;

- Hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; Chunki o‘qituvchilar uchun hamkorlik va o‘zaro fikr almashish muhimdir.

- O‘qituvchi o‘z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta‘lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo‘llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yishni tashkillashtirishda pedagog va psixolog xodimlarning amaliy va nazariy malakalarini rivojlantirish;

- Ma‘lumki, inklyuziv ta‘limda maxsus ta‘lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma‘lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi;

- Maxsus ta‘lim o‘qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o‘qitilsa, inklyuziv ta‘lim bolaga yo‘naltirilgan va moslashtirilgan, yo‘riqnomali, barchaga mo‘ljallangan o‘quv dasturi asosida o‘qitiladi;

- Har bir pedagog-psixolog xodim inklyuziv ta'limning kontseptual apparatini aniqlashtirishi zarur, sababi ular falsafaga, kontseptual asoslarga asoslanadi;

Muayyan printsiplarga rioya qilish:

-Insonning qadr-qimmatini nafaqat uning qobiliyati va yutuqlariga bog'liq. Chunki har bir inson noyobdir!

- Har bir inson his qilishga va fikrlashga qodir!

- Har bir inson muloqot qilish huquqiga ega.

- Haqiqiy ta'lim faqat kontekstda amalga oshirilishi mumkin.

- Haqiqiy munosabatlar: hamma odamlar bir-biriga, barcha odamlarga muhtoj tengdoshlar va murabbiylarning yordami va do'stligiga muhtoj.

-Xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini oshiradi. Bular nafaqat ta'lim jabhasi balki hayotiy qadriyatlar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Inklyuziv ta'lim atamasi inglizcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'laqonli munosabatlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim – hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun hamjamiyat tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim bu shunday ta'lim-tarbiya jarayoniki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir. ¹

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limning turli shakllari tashkil etilgan: maxsus ta'lim, uydagi ta'lim, inklyuziv, integratsion ta'lim va muruvvat uylari.

Maxsus ta'lim – bolalarning muammolari bo'yicha maxsus tashkil etilgan maktab-internatlari, maktablar;

¹ “Dakarskiye ramki deystviy”- YUNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsekh»(osnovniye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opita) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004

Uydagi ta'lim – ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan bolalar uchun oilada tashkil etiluvchi ta'lim;

Inklyuziv, integratsion ta'lim - umumta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi uyg'un ta'lim;

Muruvvat uylari - rivojlanishida og'ir nuqsonlarga ega bolalar uchun internat tipida maxsus tashkil etiluvchi ta'lim hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari ikki xil bo'ladi: xorijiy va milliy. Xorijiy asoslar "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948-yil), "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya (1989-yil), "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi deklaratsiya (1975-yil), "Ta'lim nima uchun" umumjahon deklaratsiyasi (1990-yil), Salamanka bayonoti (1994-yil), Dakar deklaratsiyasi (2000-yil)ga tayanadi. Milliy asoslarni esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil), "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun (1991- yil), "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (1997-yil), "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun 2008-yil), "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-farmon (2017-yil), "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712- farmon (2019-yil) lar tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limga jalb qilinmagan nogiron bolaning hayot yo'li: 7 yoshgacha uyida bo'ladi. 10 yoki 12 yil maxsus ta'lim muassasasi (internat, maktab)da, o'zi kabi bolalar bilan tahsil olganda, sog'lom insonlar bilan muloqoti birmuncha cheklangan bo'ladi. Bitirib chiqib, sog'lom insonlar orasida samarali yashab qolishi uchun yana kimningdir yordamiga muhtoj bo'ladi, bu davrda bola 19 yoshga kirgan bo'lib ota-onasi ham o'rta yoki undan katta yoshli bo'ladi, kollej yoki boshqa turdagi ta'limga jalb etilmasa, bu shaxs oilasi qaramog'ida qoladi chunki aksariyat ota-onalar avaylash maqsadida uyda boqib o'tirishga harakat qiladilar. Sabab: farzandining sog'lom insonlar orasida ishlab yoki boshqa munosabatlarga kirishishiga ishonchi yetmaydi. Boz ustiga ular atrofdagilarning farzandiga nisbatan salbiy munosabat qiladi degan xavotirda bo'ladilar. Natijada imkoniyati cheklangan shaxs tor doiradagi kishilar jamoasida qolishga mahkum bo'ladi. Kech oila quradi. Agar turmush o'rtog'i ham o'zi kabi bo'lsa, ota-ona yana kichik oilani "tortishi" ga to'g'ri keladi. Ular bolalik bo'lsa, yana mas'uliyat ko'payadi. Biroq, bu davrda ota-onaning yoshi ancha ulg'ayib ularning o'zlari ham o'zgalar g'amxo'rligiga muhtoj bo'lishlari mumkin. Demak, ota-ona keksalikda ham shu bolaning taqdirini o'ylash bilan umr kechiradi.

Imkoniyati cheklangan bola inklyuziv ta'limga erta jalb etilsa, mahallada bolalikdan qo'shni bolalar bilan o'ynaydi, ular bilan tanishadi, milliy qadriyatlarni anglay boshlaydi. Maktabgacha ta'lim davrida atrofdagi sog'lom insonlar va tengdoshlari bilan muloqotga, erta o'z-o'ziga o'rganadi, maktab ta'limiga tayyor bo'ladi. Maktabdagi to'siqlar, muvaffaqiyatlar va kelajakka ishonch, toblanish davrida

sogʻlom odamlar bilan muloqotda davom etadi, atrofdagilarning salbiy va ijobiy qarashlarida duch kelayotganini anglaydi va ularga nisbatan oʻzining mustaqil pozitsiyasini topib oladi. Endi u mustaqil hayotga qadam qoʻyadi, mustaqil fuqaro sifatida oʻqishi, ishlashi, turli munosabatlarda ishtirok etishga tayyor. Ota-ona va yaqinlari uning tashqariga chiqishidan xavotirga tushmaydi. Jamiyatda uning kimligi, nimaga qodirligini bilgan, taniganlar unga ishonadi. Natijada u oila qurish, oilasini boqish imkoniga ega boʻladi.²

Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlim ilk asoschilari va olimlari. 1996-yilda xorijiy delegatsiya mamlakatimizga kelib, ilk muzokaralarni oʻtkazgan. Ushbu muzokaralar A.Avloniy nomidagi XTTXQTMOI Maxsus taʼlim kafedrasini va RTM maxsus taʼlim boʻlimi va Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakulteti professor oʻqituvchilari ishtirokida oʻtkazilgan. Oʻzbekistonlik olim R.Sh.Shomahmudova mamlakatimizga boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ilk bor Angliya tajribasini olib kirishga muvaffaq boʻlgan. Olima rahbarligida RTM da “Inklyuziv taʼlim”ga bagʻishlangan xalqaro konferensiya tashkil etilgan. YUNICEF xalqaro tashkiloti va XTB hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarning koordinatorlari sifatida Oʻzbekistonlik olimlar professor L.Moʻminova dotsent U.Fayziyevalar ish olib borganlar.

Samarali individuallashtirish uchun bolaning rivojlanish darajasini ham hisobga olishimiz kerak. Bolalarning rivojlanishi koʻpincha notekis boʻlib, madaniy omillar qaysidir sohada rivojlanishga taʼsir etadi. Agar guruhda qobiliyatli bolalar yoki rivojlanishida orqada qolgan bolalar boʻlsa, rivojlanish darajalari oraligʻi katta boʻladi, bu esa pedagogdan kun davomida individuallashtirishni turli usullar bilan rejalashtirishni talab qiladi.

Shaxsiyat va temperament. Shaxsiyat va temperamentning koʻpgina xususiyatlari mavjud va ularning har birida kontinuumlar mavjud boʻlib, har bir bolani ularga joylashtirish mumkin. Biz shuni bilishimiz kerakki, oʻz shaxsiyatimiz va temperamentimiz bolalarning shaxsiyati bilan mos tushishi yoki aksincha boʻlishi mumkin. Ushbu farqlarni tushungan va qabul qilgan holda biz bolalarning yashash hayotini yaxshi tomonga oʻzgartira olamiz, ularning shaxsiyati va temperamentiga mos holda mashgʻulotlar rejalashtiramiz.

Gender va gender tenglik Bolalarga, odatda, gender asosida oʻzlariga doʻstlar va turli xil mashgʻulotlarini tanlash imkoniyati berilgan boʻlsa-da, u qachon sodir boʻlishini bilmoq kerak va barcha bolalarda turli xil material, oʻyinlar orqali kompetentligini uygʻotish maqsadga muvofiq boʻladi. Pedagoglar gender

² Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi boʻlgan ota-ona qaramogida boʻlgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.

stereotiplariga qarshi turishlari, o'g'il bola va qizlarni turli tadbirlarda birga o'ynashga undashlari lozim.

O'quv uslubi Barchada bilim va ko'nikmalarni egallashda o'z tanlovlari mavjud. Oramizda kimdir audialdir (biz eshitish orqali yaxshiroq o'rganamiz); yana kimdir vizualdir (biz qanday bajarilishini ko'rishimiz, qanday bajarish kerakligini o'qishimiz yoki rasmlar orqali ko'rishimiz kerak); boshqalar kinestetiklardir (biz nimadir qilishimiz kerak). Yosh bolalarning ilk davrlarida ushbu ko'rsatkichlar o'zini namoyon qilishi yoki aksincha sezilmasligi mumkin. Pedagoglar turli xil (eshitish, ko'rish va bajarish) usullar yordamida yangi bilim va ko'nikmalar orqali barcha bolalar bilim olishlarini tashkil qilishlari lozim. Barcha bolalar yutuqlarga erishishi uchun pedagoglar turli xil ta'lim uslublarini inobatga olishlari kerak.

Barcha bolalarning kuchli tomonlari (ayniqsa, ular nimani yaxshi bajaradi) va ehtiyojlari (yaxshi bajarishlari uchun ularga qanday yordam kerak) mavjud. Ba'zan kuchli xarakterlar va ehtiyojlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Psixologlar o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam berish uchun bolalarning kuchli tomonlaridan foydalanishlari lozim. Misol uchun, guruhingizdagi ikki nafar qiz taom tayyorlash jarayoniga qiziqishi va bu uchun ko'p vaqt sarflashi mumkin, ammo ular kitob o'qishni umuman yoqtirmaydilar. Demak, siz ularni oziq-ovqat yoki taom tayyorlash haqidagi hikoyalar o'qib berib, shu haqdagi kitoblar berib qiziqitirsangiz, ularning yana bir xarakterini kashf etasiz.

Psixologlar bolalar bilan individual ishlash uchun quyidagilarga e'tibor qilish kerak bo'ladi:

- ertalabki qabul paytida ota-onalar bilan bolaning salomatligi haqida suhbatlashish;
- har bir bolaga ularni qiziqtiradigan narsalarni bajarish imkoniyatini berish, tinch, ijobiy muhit yaratish va uni saqlash;
- nonushtaga tayyorlanganda va taomlanish vaqtida e'tiborli bo'lib, madaniy-gigienik ko'nikmalarga to'liq ega bo'lmagan bolalarga, ishtahasi yo'q bolalarga yordam berish, sekin ovqat yeydigan bolalarni tabiat burchagida ishlashga jalb etish;
- uyatchan, tortinchoq yoki mashg'ulotlarda qatnashmagan bolalar bilan umumiy guruh mashg'ulotlarda ishtirok etish uchun ularni tayyorlash;
- sayrga chiqish uchun kiyinish ko'nikmasini tarbiyalash, bemor va zaiflashganbolalarga alohida e'tibor berish, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni bir-biriga yordam berishga undash;
- sayr davomida turli maqsadlarga erishiladi: uyatchanlikni bartaraf etish, yangi bolani jamoaga jalb etish, kuzatishni rivojlantirish, mashg'ulotlarga qatnashishga tayyorgarlik ko'rish, mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash;
- har qanday faoliyatda alohida o'rnak bo'ladigan bolalarga imtiyoz berish;
- gapirishda qiynalayotgan bolalar bilan she'rlar, tez aytishlar yod olish;

• kechqurun ota-onalar bilan muloqot qilish, kun davomida bolaning faoliyati haqida gapirib berish, savollariga javob berish, o'zlari qiziqqan mavzu bo'yicha tavsiyalar berish.³

Muhokama va natijalar. Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim amaliyoti respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi tomonidan olib borilayotgan loyihalar asosida takomillashib bormoqda. Muammolar aniqlanib, tegishli yechimlar topish borasida tajriba sinov ishlari olib borilmoqda. Shu o'rinda inklyuziv ta'limning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish – eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. O'tgan yigirma yil davomida alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib, qishloqlardagi hududlarda hali-hamon alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda, barcha alohida yordamga muhtoj bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. Bog'lanish bu – so'zning zamirida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli kira olmaganligi yoki maktab hojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlanmasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi alohida yordamga muhtoj bolalarning

³ Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.

ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Shubhasiz, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.⁴

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni quyidagicha ifodalaniladi:

A) Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B) Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim. Optimal integratsiyaga erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari alohida yordamga muhtoj bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularda shaxsiy sifatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Alohida yordamga muhtoj bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili. Alohida yordamga muhtoj bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa alohida yordamga muhtoj bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotganda uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda reja tuzish talab etadi. Bu tamoyilning mohiyatida yordamga muhtoj bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rtamaxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Alohida yordamga muhtoj bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri alohida yordamga muhtoj bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Psixolog L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo'llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozimdir.

⁴ Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimizning 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritildi. Jarayonda yurtimiz umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etish rejasi belgilab olindi. Unga ko'ra, 2025-yilgacha alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. "Salamanka deklaratsiyasi"ga muvofiq har bir o'quvchi xususiyatlarini isloh qilishni qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi dalil sifatida qaraladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim bu haqiqiy insoniylik va sotsial tizimdagi eng yuksak tolerantlik hisoblanadi. Har bir inson bu dunyodan bahramand bo'lishga haqli, xususan, ta'lim olishda, shu sababli pedagog xodimlar bu muhim jihatni inobatga olishi va jamiyatning kelajagini shakllantirish uchun entuziastik, o'zaro hamjihatlik orqali erishishga harakat qilishi kerak. Iqtibos sifatida Respublikamizda 2021-2022 o'quv yilidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan inklyuziv maktablar soni 31 tani tashkil etib, 2022-2023 o'quv yilida esa yangi tashkil etiladigan inklyuziv umumta'lim maktablari soni 194 ta inklyuziv ta'lim sinfi ochilishi (232 ta inklyuziv ta'lim sinfi (prognoz), 4 ta tayanch korreksion maktab (4 ta tayanch korreksion sinf), shuningdek, 510 nafar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchini (prognoz) qabul qilish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.
3. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-"Uzinkomsentr"-2002 yil.
4. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobimi nujdami v doshkolnykh i shkolnix uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTSO Resursno'y sentr YuNESKO Tashkent 2002

5. “Dakarskiye ramki deystviy”- YUNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsekh»(osnovniye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opita) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004
6. «Inklyuziv ta’lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.
7. Imkoniyati chyeklangan bolalar va osmirlar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish to’g’risida muvaqqat NIZOM. ORXTV T.,19 sentabr, 2005.
8. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995

